



O‘ZBEKISTONDA RASSOMCHILIK SAN’ATI TADQIQOTLARI

Palmanova Svetlana Mingbayevna,

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati
davlat muzeyi filiali Ellikqal’a tumani arxeologiya va
tarix muzeyi bo‘lim boshlig‘i*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606097>

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida rassomchilik san’atining paydo bo‘lishi hamda devoriy rasmlar tarixi haqida tushuncha berilgan. Rang o‘zi nima? U qayerdan paydo bo‘ladi, nimalardan tuzilgan? Inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi rangning xususiyati nimadan iborat?. Tasviriy san’at nazariyasi oldida turgan shunga o‘xshash rang bilan bog‘liq savollar o‘z yechimini topadi. Tarixchilar va arxeologlar olib borgan tadqiqotlari O‘zbekistondagi rassomchilik maktablari, asosiy asarlari va ularni tadqiq qilish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Varaxsha, akvarel, guash, natyurmort, impressionizm, postimpressionizm*

***Annotation.** This article is a presentation of the driver’s response and the history of Uzbekistan. What is color? Where does it come from, what is it made of? What is the property of color that affects the human psyche? Similar color-related questions facing the theory of fine arts will find their solution. The research conducted by historians and archaeologists will analyze the schools of painting in Uzbekistan, their main works, and the directions of their research.*

***Key words:** Varakhsha, watercolor, gouache, still life, impressionism, post-impressionism*

Rangtasvir juda qadimiy san’at. Uning asoslari soyadagi tasvirlardan boshlanadi. Antik davr rassomlari rangtasvir asarlarida juda katta ta’sirchanlikka erisha olishgan, bu naturaga katta diqqat e’tibor qarashdan, shu bilan birga rangtasvir texnologiyasiga kiritilgan yangiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan. Inson hayotida rangning ahamiyati katta. Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixining ilk davri qadim zamonlarga borib taqaladi. G‘orlardagi devoriy rasmlar, toshdan va suyakdan yasalgan statuetskalar, tosh plitalardagi va kiyik shoxlari parchalaridagi naqshinkor bezaklar hali inson badiiy ijobiyatni ongli ravishda ta’savvur qilishdan birmuncha ilgari yuzaga kelgan. Ilk san’at asarlari o‘zining takrorlanmas sofligi, yorqin ifodaviy kuchi, hayotiyliigi bilan shu kungacha badiiy ahamiyatini yoqotmaganligi hayratlanarlidir.

“O‘ylaymizki tariximiz, madaniyatimizni o‘zimiz uchun va butun dunyo uchun qayta tiklash mustaqil O‘zbekiston milliy san’ati taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi” – degan edi I.A. Karimov.[3 , B. 281]

Biz ko‘z o‘ngimizda nimani ko‘rsak shuni rangda va rang orqali ko‘ramiz. Jamiyatda inson uchun rangning ro‘li muhim bo‘lib, inson ruhiyatiga katta ta’sir etadi. “Umumiy rang, -deb yozadi , Gyote,-odamlarda katta quvonch uyg‘otadi”. Xalq tilida go‘zallik haqidagi tushuncha rang bilan bog‘liq. Ular xalq amaliy san’atida o‘z aksini topgan va xalq bayramlarida ham rang-barang ko‘rinishlarni tomosha qilishimiz mumkin. Rang o‘zi nima? U qayerdan paydo bo‘ladi, nimalardan tuzilgan? Inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi rangning xususiyati nimadan iborat? Tasviriy san’at asarida va tabiatda rangning estetik ta’siri, idrok qilish qonunlari



mavjudligi, ular qanday? Rangning shakl chiziqlariga, yorug'-soyaga munosabati qanday? Rang majmuasi nima? Kolorit nima? Tasviriy san'at nazariyasi oldida turgan shunga o'xshash rang bilan bog'lik savollar o'z yechimini topishi kerak.

San'atning paydo bo'lishi va insoniyatning ilk badiiy ijod na'munalari ibtidoiy jamoa davriga to'g'ri keladi. Chunki, o'sha davrda jamiyat hayotininig ruhiy va iqtisodiy asoslari shakllanayotgan edi. Tarixchilar va arxeologlar olib borgan tadqiqotlar san'atning dastlabki yodgorliklari yuqori paleolit davriga oid ekanligini tasdiqlaydi. Bu davr iptidoiy jamoa tuzimining nisbatan yetilishi, urug'chilikning shakllanishi, matriyaxning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Odam o'zining jismoniy sifatlari bilan hozirgisidan hech qanday farq qilmas, so'zlashish, tosh, suyak, shox va yog'ochdan nisbatan murakkab qurol yasash, ov bilan shug'illanish malakasiga ega edi. Jamoa mehnat faoliyatining kengayishi natijasida odamning fikrlash doirasi ham kengaydi. Qadimiy qabilalarning bir necha ming yillar davomidagi taraqqiyoti, ko'z qarashlari, qo'l harakatlarining mayinlashuvi, asosiy va xarakterli holatini ko'rish, his qilish, tabiatga xos shakllar uyg'unligi va go'zallikni ilg'ash qobiliyatini oshiradi. O'zbekiston rassomchiligi, uning tarixi rivojlanishi bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro san'at tadqiqotlari doirasida katta e'tibor qozonmoqda. [3, B.3] O'zbekistonda devoriy rasmlar qadimdan ma'lum bo'lgan. Surxondaryo (Xolchayon, mil. av. I-asr, Tuproqqal'a, III-asr, Bolaliktepa qasri, V—VI-asrlar), Buxoro yaqini (Varaxsha saroylari, VII-asr) va Afrosiyob (VII-asr)dagi devoriy rasmlar na'munalari badiiy jihatdan qimmatli. Ushbu maqolada O'zbekistondagi rassomchilik maktablari, asosiy asarlar va ularni tadqiq qilish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Syujetli rasmlarda o'sha davrdagi hayot lavhalari, hayvon tasvirlari, bazm, safar, qabul marosimlari, shohlarning qahramonliklari aks ettirilgan (Afrosiyob devoriy rasmlari). Tarixiy qo'lyozmalarda islom dini hukmronligi davrida naqshli mujassamotlar bilan bir qatorda syujetli devoriy rasmlar na'munalari yaratilganligi (mas, Amir Temurning Samarqanddagi Dilkusho saroyi devorlari qahramonona jang lavhalari, tasvirlar bilan bezatilganligi) haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Quyida shunday devoriy rasmlardan biri Afrosiyob devoriy rasmlariga to'xtalib o'tamiz: Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan mahobatli rangtasvirning noyob namunalari. Dastlabki namunalari arxeolog V. Vyatkin tomonidan ochilgan (1913-yil). Keyingi qazishlar davri (1965-68)da o'zbek arxeologlari 30 ga yaqin saroy xonasini ochishga muvaffaq bo'lganlar, bu xonalarning ko'plari devoriy rasmlar, naqshlar bilan bezatilgan. Shulardan katta (11x11 m) va kichik (7x7 m) xonalardagi rasmlar birmuncha yaxshi saqlangan. Xonalardan birida erkak va ayol ark oldida o'tirgan holda tasvirlangan. Katta xona devorlariga ishlangan rasmlar detallarga boyligi, saqlanib qolgan sug'd yozuvlari bilan ahamiyatli. Xona devorlariga ishlangan rasmlarda to'y marosimi, Sug'd hukmdorining xorijiy davlatlarning elchilarini qabul qilishi, bu elchilarning yo'ldagi sarguzashtlari, yirtqich hayvonlar bilan olishuv, ov manzaralari, afsonaviy mahluqlar tasvirlangan. Saqlanib qolgan rasmlar tahlili o'rta asr mahobatli tasviriy san'atining g'oyaviy badiiy yo'nalishi, rassomning ish usullari va vositalari haqida, tafsilotlarga boy maishiy sahnalar, etnik ko'rinishlar o'sha davr haqida fikr yuritish imkonini



beradi. Rassom devorni 3 qismga bo‘lib, 2 chetki qismidan ensiz naqsh hoshiyasi ajratib olgan, asosiy qismga mavzuli tasvir ishlagan, voqealarni yuqoridan kuzatayotganday aks ettirgan. Afrosiyob devoriy rasmlari yagona bir mazmunga bo‘ysundirilgan: markazda sug‘d hukmdori Varxumon turadi, an‘analarga ko‘ra rassom uni boshqalarga nisbatan yirik ko‘rinishda (butun devor balandligida, 5-6 m) tasvirlab, hukmdorning buyukligini e‘tirof etadi, unga abadiylik, qahramonlik baxsh etadi. Afrosiyob devoriy rasmlari O‘rta Osiyoda arablar istilosiga qadar mahobatli rangtasvirning rivojlanganligini, Samarqand uning markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi. 1970-yillar oxiridan 1980-yillar boshlarigacha bo‘lib o‘tgan qazishmalarda devorlarda gulli va me‘moriy bezaklarni o‘z ichiga olgan, bir nechta islomgacha bo‘lgan davrga oid tasvirlar topilgan, keyinchalik Islom davriga oid rasmlar ham qayta tiklangan. San‘at tarixi bo‘yicha tadqiqotlar, asosan arxiv va muzey materiallariga tayangan holda amalga oshiriladi. [2, B.306]

O‘zbekiston rassomchiligi qadimiy davrlardan boshlab shakllangan, u xalq san‘ati va miniature san‘ati bilan chambarchas bog‘liq. Rassomlar o‘z asarlarida milliy urf-odatlarini, rang va kompozitsiyani uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos ijodiy uslub yaratgan. Bugungi kunda rassomchilik tadqiqotlari zamonaviy texnologiyalar yordamida olib borilmoqda. Masalan, analitik metodlar orqali asarlar tarkibi, ranglarning kimyoviy tarkibi va texnika xususiyatlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, xalqaro konferensiyalar va ilmiy maqolalar orqali o‘zbek san‘ati dunyo miqyosida tanitilmoqda.

San‘atning tarixiy rivoji jarayonida uning turlari ham shakllana bordi: me‘morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, amaliy bezak san‘ati va boshqalar. Ularning barchasi inson an‘aviy hayotining muhim qismi bo‘lib, yuksak badiiy ideallarni, go‘zallik haqidagi tushunchalarni ifoda etadi. Bir san‘at turi boshqasidan o‘zining mazmuni, badiiy – ifodaviy vositalari va uslubi, materiyali, obrazli anglash darajasi, his tuyg‘ularga ta‘siri va hayotiy ahamiyati bilan farq qiladi. Har bir san‘at turi taraqqiyot, tanazzul va tushkunlik davrlarini boshdan kechiradi, rivojlanish jaroyani bir tekis kechmaydi. [3, B.5]

Me‘morchilik (arxitektura) – insonlarning kundalik, shaxsiy va jamoaviy hayoti talablari, ehtiyoji bo‘yicha bino yoki ularning kompleksni qurish san‘atidir. Me‘morchilik inson ruhiga o‘zining badiiy va mahobatli shakllari bilan boshqa san‘at turlariga nisbatan doimiy ta‘sir qilib turadi.

Haykaltaroshlik– tabiiy 3 o‘lchamli, hajmli prinsipga asoslangan tasviriy san‘at turi. Haykaltaroshlikda asosan tasvir obyekti inson bo‘lib, hayvonot olami (animalistik janr), manzara (peyzaj) va natyurmort janri kam uchraydi. Haykal mazmuni va vazifasiga ko‘ra, mahobatli bezakdor, dastgohli ko‘rinishlarga ega. Bu xilma – xil haykallar o‘zaro uyg‘unlashgan, qorishgan holatda rivojlanish bilan birgalikda har biri o‘ziga xoslikka ega.

Grafika – qalam tasvir va bosma badiiy asarlarni o‘z ichiga olgan (gravyaturaning xilma-xil turlari) tasviriy san‘at turidir. “Grafika” so‘zi avvalambor yozuv va kalligrafiyaga muvofiq qo‘llangan. XIX-asr oxiri XX-asr boshida “Grafika”



sanoat poligrafiyasi va kalligrafik aniq, kontrast chiziqli qalam tasvir usulining keskin rivoji tufayli hamda jurnal va kitoblar chop etishda fototexnik ishlab chiqarilishi jihatdan eng qulayligi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Grafika sa'natida obrazning hajmiyligiga badiiy vositalarning bir nuqtaga yig'ilganligi va qaratilganligi, ta'sirchanligi bilan erishiladi.

Miniatura – kichik hajmli va badiiy uslubining nozikligi bilan ajratib turadigan tasviriy san'at asari. Miniaturaning maxsus turi mustaqil xarakterga ega bo'lgan rangtasvir va grafik tasvirlardir(asosan portretlar). Miniaturaning bir turi – lokli rangtasvir bo'lib, kichik lokli mahsulotlar yuzasiga moyb'yoq yoki temperada tasvirlari ishlab chiqiladi. Miniatura rassomchiligi mahorat va noziklikni talab qiladi. Ranglarning uyg'unligi, chizmalarning aniqligi va kompozitsiya yondashuvi san'atshunoslar uchun qimmatli tadqiqot materiali hisoblanadi. Shu davr asarlari orqali o'zbek san'atining tarixiy rivojlanishini kuzatish mumkin.

Rangtasvir – tasviriy san'at turi bo'lib, unda tasvir yoki kartina ranglar orqali matoning qattiq yuzasida yaratiladi. Rangtasvirda keng hikoya qilinuvchi va murakkab sujetli tasvir bo'lishi mumkin. Bu holat nafaqat real borliqni ko'z bilan ko'rar darajada yaqqol ko'rsatish, balki hayotning keng manzarasini ifoda etish imkonini beradi. Shunindek, rangtasvirda tarixiy jarayonlarning mohiyati ochib beriladi. Rangtasvir asarlarini bajarish uchun suvboyoq, guash, pastel, tushdan ham foydalaniladi. Rangtasvir uchun eng asosiy va eng tasirli ifodaviy vosita moybo'yoq hisoblanadi.

O'zbekiston rassomchiligi tarixi bir nechta muhim davrlarga bo'linadi. Qadimiy davrlarda rassomchilik asosan me'morchilik va dekorativ san'at shaklida rivojlangan. Xiva, Buxoro va Samarqand maktablari miniatura san'ati va to'qimachilikda o'ziga xos uslubni yaratgan. O'zbekiston tasviriy san'atining vujudga kelishi va shakllanishidagi birinchi bosqich 1910-1920 yillarga to'g'ri keladi. L. Bure, A. Volkov, A. Tatevosyanlarning ijodiy izlanishlari bu davr tasviriy san'ati haqida tasavvur berib turadi. Bu davrda omma uchun mo'ljallangan san'at turlari: gazeta-jurnal va kitob grafikasi, plakat, hajviy chizgilar rivojlandi. [3, B.124]

Rassomchilikning rivojlanishi bilan birga, ilmiy tadqiqotlar ham rivojlandi. Arxiv hujjatlari, eski kitoblar va muzey materiallari asosida tadqiqot olib borish rassomlar va san'atshunoslar uchun asosiy manba hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar asosida rassom asarlari turli nuqtai nazardan o'rganiladi. Ular tarkibiy tahlil, stilistik o'rganish va tarixiy kontekstga qo'yib baholash metodlariga bo'linadi.

Arxiv va muzey materiallari yordamida rassomlarning ijodiy yo'nalishlari, asarlarning kelib chiqishi va texnik xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ilmiy maqolalar, monografiyalar va konferensiyalar orqali ma'lumotlarni yangilab borish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda asosiy maqsad – milliy san'atni saqlash, asarlarni kelajak avlod uchun tadqiq qilish va ularni global san'at maydonida tanitishdir. Bu esa zamonaviy metodologiya va texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. [3, B.10]

“SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi



Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki O‘zbekistonda rassomchilik san’ati qadimiy san’atlardan biri bo‘lib dastlab devoriy rasmlar ko‘rinishida paydo bo‘lgan. O‘zbekiston rassomchilik tadqiqotlari milliy madaniyat va san’atni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar orqali nafaqat tarixiy, balki zamonaviy san’atni ham chuqur tushunish mumkin.

Kelajakda ilmiy tadqiqotlar yangi metodologiyalar, texnologiyalar va xalqaro hamkorlik orqali yanada rivojlanishi kutilmoqda. Shu bilan birga, rassomchilik tadqiqotlari yosh rassomlarni ilhomlantiradi va milliy merosni avloddan-avlodga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T..“Ozbekiston 1996,3-T,281-b
2. A.S.Sagdullaev O‘zbekiston tarixi 1 kitob T “VNESHINVESTROM”2003 306 b
3. A. Egamberdiev,S.Saydova, R.Rajabov“Tasviriy va me‘morchilik san’ati tarixi” Toshkent - 2007

